

8-sinf adabiyot

2-CHSB

I variant

1.(B – 2). Nodira hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.

A) Shoiraning asl ismi – Mohlaroyim bo‘lib, Komila, Maknuna taxalluslari bilan ham ijod qilgan.

B) Zamonasining ahli adibi va ahli fuzalosi uni “malik ul-kalom”, ya’ni “so‘z podshosi” deb e’zozlagan.

C) Turkiy (o‘zbekcha) devonining XVI–XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan jami 33 nusxasi bizgacha yetib kelgan.

D) “Gul va Navro‘z” dostoni sho‘rolar davrida uzoq yillar shoiraning asari sifatida xato taxmin etib kelingan.

2.(B – 2). Ushbu baytda qo‘llangan badiiy san’atni aniqlang.

Bo‘yung sarv-u sanubartek, beling qil,

Vafo qilg‘on kishilarga vafo qil

A) tajnis

B) talmeh

C) irsoli masal

D) istiora

3.(B – 2). Oybek hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.

A) ”Tuyg‘ular”, “Baxtigul va Sog‘indiq”, “Front bo‘ylab”, “Olovli yo‘llar” kabi she’riy to‘plamlari mavjud.

B) Ijodkorning ilk qissasi “Tengdoshlar” nomi bilan bosilgan bo‘lib, harbiy xizmatda yurgan yillari yozilgan.

C) Shoir tarjimonlik faoliyati bilan ham shug‘ullangan bo‘lib, Gyotening “Faust” asarini o‘zbekchaga o‘g‘irgan.

D) Shoir dramatik janrda ham barakali ijod qilgan bo‘lib, uning “Yorqinoy” dramasi juda mashhur bo‘lgan.

4.(B – 2). Berilgan ma’lumotlardan to‘g‘risini belgilang.

A) Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari o‘zbek adabiyotining ilk tragediyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

B) Tragik asarning boshqa asarlardan farqi shundaki qahramonlarning tinch hayoti fonida murosasiz kurash tasvirlanadi.

C) Ispan dramaturgiyasi paydo bo‘lishi va teatr san’atining vujudga kelishida Shekspirning xizmatlari katta.

D) Tragik asarlarning paydo bo‘lishi Qadimgi Misr davlatiga borib taqaladi va bundan 2500 yil oldin paydo bo‘lgan.

5.(Q – 2,8). Nodira qalamiga mansub g‘azal tahlili keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Shoir duniyoning bevafo ekanligiga urg‘u berar ekan, uni “Bir oh bila xazon etib ket”ishga da’vat etadi.

B) O‘qday qomatini go‘zal qizlar uchun egib yuborgan ko‘ngil haqida “Muttasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul” misralarini bitadi.

- C) Bir qamar siymoning go‘zalligini ta’riflar ekan uning ko‘zlari joduli-yu yuzi qo‘lga olishda jodu ekanligi aytib o‘tilgan “Kashmirda” nomli g‘azali mavjud
- D) Ijodkor dunyo ko‘p jabr-u jafo qilganligini, hayot unga goh shodlik, goh jabr berganligini aytib, dunyoni buqalamunga tashbeh qiladi.

6.(Q – 2,8). G‘afur G‘ulomning “Vaqt” she’riga oid ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Ba’zida bir soniya ichida juda katta o‘zgarishlar va yo‘qotishlar bo‘lishi mumkinligini muallif “Ba’zida bir nafas olgulik muddat, Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik” misralari orqali ifodalaydi.
- B) Ushbu she’rda mustaqillikka erishgach olcha gulini ko‘zlariga surtib “Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor” deya omonlik so‘rayotgan ona tasviri uchraydi.
- C) She’rda shoirning hayotning ayovsiz sinovlari, g‘araz, yomonlik, xiyonat, aldovlarini ko‘raverib bezor bo‘lgani, urushda ikki akasini yo‘qotgani aks ettirilgan.
- D) Insoniyat boshidan o‘tkazgan quldorlik davrining ayanchli va achinarli holatlarini ta’sirli holda ifoda etadi.

7.(Q – 2,8). G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she’riga oid ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) She’rda ota xayolini janggohdagi o‘g‘li hayotiga oid tahlikali o‘ylar qurshab olganda Bedilning misralarini o‘qib taskin topishi haqidagi fikrlar bor.
- B) Insoniyat bu dunyodan o‘tib ketishini, bizdan keyin faqat yaxshiliklar hamda mehr-muhabbat qolishini aytib o‘tadi.
- C) Umrining katta qismini chet davlatlarda o‘tkazgan, umrining so‘ngida yurtiga qaytib kelgan otaning iztiroblari tasvirlangan.
- D) O‘z hayotini o‘yin-kulgi tufayli boy bergan insonning bolalik yillariga bo‘lgan sog‘inchi aks etgan

8.(Q – 2,8). G‘afur G‘ulomning “Bilib qo‘yki, seni vatan kutadi” she’riga oid ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Yoshlarni ilm olishga, kasb o‘rganishga da’vat etgan shoir “Fanlar ko‘p, fanlar bor o‘rganishga kuch: Yerda yur, suvda suz, osmonda uch” misralarini bitadi.
- B) Quvonchli kunda ham, qayg‘uli kunda ham yelkadosh bo‘la oladigan vatanni onaga, singilga qiyos etgan shoir unga qarata “Singlim deymi, Onam deymi, Hamdard-u hamxonam deymi” deya murojaat qiladi.
- C) Bahor kelishi bilan tabiatdagi o‘zgarishlar insonda hayotsevarlik kayfiyatini uyg‘otishi, mana shunday lahzalarda vatan chorloviga “Labbay” deyish kerakligi aytib o‘tilgan.
- D) Qarindosh-urug‘larini anchadan beri ko‘rmagan lirik qahramonning sog‘inchi tufayli ona vatan o‘z bag‘riga chorlayotgani o‘tli misralarda kuylanadi.

9.(Q – 2,8). Oybekning “O‘zbekiston” she’riga oid tahlil keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Shoir o‘zbek xalqini o‘qishga, ona vatanni sevisga va ardoqlashga chorlar ekan “O‘qi va sev! Buning ismi yosh O‘zbekiston” misralarini yozadi.
- B) Amerika kashf etilishining shuhrati Kolumbga o‘tib ketganidan afsuslangan shoir “Kolumbda bor alamim manim, O‘zbekiston Vatanim manim” misralarini bitadi.
- C) Shoir o‘zbek xalqining Katta urug‘ning ustamonligi tufayli oldin qo‘shniga, keyin do‘stga, oxiri qulga aylanganligi haqida gapirib o‘tadi.

D) Dunyoning sirliligi, “tuynuksiz qasr”ligi, muhabbat tuyg‘usi inson umriga suyanch, yo‘lni yoritadigan chiroq ekani bayon qilinadi.

10.(Q – 2,8). Oybekning “Na’matak” she’riga oid tahlil keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Mayda-mayda oq gullarini shamol uchirib ketayotganini xuddi shamol inju sochayotganiga qiyoslab “Shamol injularin separ chashmadek” misralarini bitadi.
- B) She’rda kasallik bor yerda hakim ham bo‘lishi, kasallik va sog‘lik har doim yonma-yon yurishi, barchasiga shukur qilish yaxshi odat ekanligi bayon qilingan.
- C) Ijodkor oradan vaqtlar o‘tsa ham, uni xalqi unutmasligini gullardan haykal qo‘yilishini orzu qilib “Ming yillardan keyin ham Unutmas meni bog‘im” misralarini bitadi.
- D) Ijodkor o‘z she’rlarida tinch o‘tayotgan har bir kunimizning o‘zi tarixiy voqea ekanligini aytib o‘tadi.

11.(Q – 2,8). “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi voqealari yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A) Temur Malik Yaroqbekning otasini o‘ldirgani uchun undan qasos olish niyatida yuradi.
- B) Qodog‘oy no‘yonning bir ko‘zini Jaloliddin janglarning birida yaralagani uchun ko‘r bo‘lib qolgan edi.
- C) Temur Malik qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni taqsimlashda Jaloliddin bilan kelisha olmay qo‘shinni tashlab ketadi.
- D) Chol Jaloliddinning hayotini saqlab qolgani uchun saroyda katta obro‘ hamda lavozimga erishadi.

12.(Q – 2,8). “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi qahramoni Nasaviy obrazi yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A) O‘z vazifasini sidqidildan bajaruvchi, vatan ozodligi uchun jon fido qilgan tarixchi.
- B) Malikaning turmush o‘rtog‘i bo‘lishiga qaramay xiyonat yo‘liga kirgan amir.
- C) Oilasi mog‘ul bosqinchilari tomonidan shafqatsizlarcha qirib tashlangan qahramon.
- D) Podshohga sadoqat bilan xizmat qilgan, uni o‘limdan saqlab qolgan mard yigit.

13.(Q – 2,8). Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi haqida to‘g‘ri fikr keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Vatan ozodligi uchun mog‘ul bosqinchilariga qarshi yetti marta jang olib borgan shahzoda haqida hikoya qilinadi.
- B) O‘z dinini o‘zgartirganligi uchun xalqning nafratiga duchor bo‘lgan va mamlakatni tashlab ketgan podshoh haqida hikoya qilinadi.
- C) O‘z otasiga qarshi urush e‘lon qilgan shahzoda va uning fojiali taqdiri haqida hikoya qilinadi.
- D) Bosqinchilar tufayli o‘z yurtini tashlab ketgan, ammo boshqa bir davlatda ulkan imperiyaga asos solgan hukmdor haqida hikoya qilinadi.

14.(Q – 2,8). “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A) Vatan himoyasi har narsadan ustun ekanligi, buning uchun kerak bo‘lsa, shirin jondan kechishga ham tayyor bo‘lish zarurligi bayon qilingan.
- B) Adolatsiz va bilimsiz hukmdor tomonidan boshqarilgan mamlakatning kelajagi yo‘qligi va bir kun zavolga yuz tutishi bayon qilingan.

C) O'z yaqinlarining qadriga yetmagan odam hech qachon vatan taqdiriga javobgar bo'la olmasligi bayon qilingan.

D) Vataniga xiyonat qilgan odamlarni xalq kechirmasligi va ularning hayoti qiyinchiliklarda o'tishi bayon qilingan.

15.(M – 4). Ushbu bayt to'g'ri tahlil qilingan javobni aniqlang.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,

Ko'ngulda ani nihon etib ket.

A) Ishq sirini hech kimga bayon qilmaslik, uni hamisha ko'ngilda yashirin saqlash zarurligi bayon qilingan.

B) Ko'ngildagi ishqni qanchalik sir saqlama, xaloyiq bu ishqdan xabar topishi mumkinligi bayon qilingan.

C) Ko'ngilga tushgan ishqni odamlarga bildirmay, ulardan yashirib, o'zi bilan olib ketish qiyinligi bayon qilingan.

D) Qalbdagi ishqni faqat oshiq bilishi kerakligi, xaloyiq bundan xabar topsa, oshiqning ko'ngli qolishi mumkinligi bayon qilingan.